

**ABUL FATH AL-MUTARRIZIYNING “MISBAH FI AN-NAHV” ASARIDA
SINTAKTIK “OMIL” NAZARIYASI VA FE’L VALENTLIGI MASALALARI**

Esonqulov Inoyatullo Abdusamin o‘g‘li
TDSHU magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqola XII-XIII asrlar Xorazm filologiya maktabining yirik namoyandasi Abul Fath al-Mutarriziyning “Misboh fi an-nahv” asarida ilgari surilgan sintaktik “omil” (boshqaruvchi) nazariyasiga bag‘ishlanadi. Unda fe’lning til tizimidagi mutlaq boshqaruvchi (omili mutlaq) sifatidagi maqomi, uning valentlik xususiyatlari (bir, ikki va uch to‘ldiruvchili fe’llar) hamda inson kognitiv faoliyatini ifodalovchi “qalb fe’llari”ning (ilg‘o va ta’liq) psixolisoniy tabiati chuqur ilmiy-lingvistik tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Al-Mutarriziy, “Misboh fi an-nahv”, Xorazm nahv maktabi, omil nazariyasi, fe’l valentligi, mutaaddiy fe’l, qalb fe’llari, ilg‘o va ta’liq, arab tili sintaksisi.*

**СИНТАКСИЧЕСКАЯ ТЕОРИЯ «АМИЛЬ» И ВОПРОСЫ
ВАЛЕНТНОСТИ ГЛАГОЛА В ТРУДЕ АБУЛЬ-ФАТХА АЛЬ-МУТАРРИЗИ
«АЛЬ-МИСБАХ ФИ АН-НАХВ»**

Эсонкулов Иноятулло Абдусамин огли
Магистрант ТГУВ

Аннотация: *Данная статья посвящена синтаксической теории «амиль» (управляющего фактора), выдвинутой в труде «Аль-Мисбах фи ан-нахв» видным представителем Хорезмской филологической школы XII-XIII веков Абуль-Фатхом аль-Мутарризи. В ней проводится глубокий научно-лингвистический анализ статуса глагола как абсолютного управляющего фактора в языковой системе, его валентных свойств (одно-, двух- и трехвалентные переходные глаголы), а также психолингвистической природы «глаголов сердца», выражающих когнитивную деятельность человека.*

Ключевые слова: *Аль-Мутарризи, «Аль-Мисбах фи ан-нахв», Хорезмская школа грамматики, теория фактора (амиль), валентность глагола, переходный глагол, глаголы сердца, ильга и талик, синтаксис арабского языка.*

**THE SYNTACTIC THEORY OF "‘AMIL" AND ISSUES OF VERB
VALENCY IN THE WORK "AL-MISBAH FI AN-NAHW" BY ABUL FATH
AL-MUTARRIZI**

Esonqulov Inoyatullo Abdusamin o‘g‘li

Abstract: *This article is devoted to the syntactic theory of "‘amil" (governing factor) put forward in the work "Al-Misbah fi an-nahw" by Abul-Fath al-Mutarrizi, a prominent representative of the Khorezm philological school of the XII-XIII centuries. It provides a deep scientific-linguistic analysis of the status of the verb as an absolute governing factor in the language system, its valency properties (mono-, di- and tri-transitive verbs), as well as the psycholinguistic nature of the "verbs of the heart" expressing human cognitive activity (ilgha and ta’liq).*

Keywords: *Al-Mutarrizi, "Al-Misbah fi an-nahw", Khorezm school of grammar, ‘amil theory, verb valency, transitive verb, verbs of the heart, ilgha and ta’liq, Arabic syntax.*

Kirish. XII–XIII asrlar Islom sharqi, xususan, Xorazmshohlar davlati intellektual tarixida lisoniy aniqlik va teologik tafakkur sintezi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan davr hisoblanadi. Ushbu murakkab jarayonning markazida Xorazm filologiya maktabining buyuk namoyandasi Abul Fath Burhoniddin Nosir ibn Abdussayyid al-Mutarriziy (538-610/1144-1213) turadi. Uning ilmiy salohiyati va o‘lmas asarlari asrlar davomida Movarounnahr hamda keyinchalik Usmoniylar imperiyasi madrasalarida arab tili grammatikasi bo‘yicha ta’lim standartlarini belgilab berdi.

Klassik arab tilshunosligi tarixida al-Mutarriziy o‘z zamondoshlari va keyingi asr olimlari tomonidan “Xalifatu-z-Zamaxshariy” (Zamaxshariyning xalifasi/davomchisi) degan sharaflı unvon bilan e’tirof etilgan. Buning qator tarixiy, intellektual va gnoseologik sabablari mavjud. Birinchidan, u ulug‘ alloma Mahmud az-Zamaxshariy vafot etgan yili aynan Xorazmning Jurjoniya (Gurgonj) shahrida tavallud topgan. Ikkinchidan, u o‘zidan oldingi buyuk ustozining mu’taziliy (islom ratsionalizmi) va hanafiy fiqhi doirasidagi qat’iy mantiqiy ta’limotini arab tilshunosligiga tatbiq etish an’anasini bevosita va uzviy ravishda davom ettirgan. Al-Mutarriziy o‘g‘li Jamoliddin Aliga arab tili grammatikasining asosiy qoidalarini oson va tizimli o‘rgatish maqsadida yozgan “Misboh fi an-nahv” (“Nahv ilmi chirog‘i”) asari uning ijodiy merosida markaziy o‘rin tutadi. Ushbu asar az-Zamaxshariyning monumental “Al-Mufassal” asaridan farqli o‘laroq, arab tili sintaksisining yadroviy mexanizmi bo‘lgan sintaktik “omil” (boshqaruvchi) va “ma’mul” (boshqariluvchi) nazariyasiga mutlaq fokus qaratganligi bilan ajralib turadi. Asar o‘ta ixchamligi, jumllarining mantiqiy pishiqligi va besh qat’iy bobga (istilohlar, qiyosiy omillar, simoiy omillar, ma’naviy omillar va

umumiy arab tili fasllari) tizimlashtirilgani bois, yozilgan davridanoq butun islom olamida talabalar va ulamolar orasida asosiy darslik darajasiga ko'tarilgan.

Arab tili sintaksisi (nahv ilmi)ning eng fundamental va harakatlantiruvchi konsepti, shubhasiz, "omil" (العامل – boshqaruvchi, ta'sir o'tkazuvchi lisoniy kuch) nazariyasidir. Bu nazariya arab tilidagi so'zlarning gap tarkibida bir-biri bilan qanday sintaktik munosabatga kirishishini va ularning oxirgi harakatlari (e'robi) aynan qanday tashqi yoki ichki kuch ta'sirida o'zgarishini belgilab beradi. Ilk nahv maktablari, xususan, Basra va Kufa olimlari (Sibavayh, al-Xalil) omil tushunchasini shunchaki e'robni (so'z oxirini) o'zgartiruvchi grammatik vosita sifatida bir qadar mexanik tarzda tushuntirgan bo'lsalar, al-Mutarriziy bu tushunchani yuksak falsafiy va ratsional bosqichga olib chiqdi.

Xorazm ilmiy muhitiga xos bo'lgan va al-Mutarriziy tayangan mu'taziliy e'tiqodi ta'sirida olim tildagi grammatik jarayonlarni nutqiy tasodif emas, balki qat'iy mantiqiy sabab-oqibat (causality) qonuniyatiga bo'ysunuvchi tizim deb bildi. Shuning uchun u "Misboh fi an-nahv" asarining birinchi bobida omilga quyidagicha o'ta aniq, kognitiv va mantiqiy ta'rif beradi:

أَلْعَامِلُ عِنْدَهُمْ مَا أُوجِبَ كَوْنَهُ آخِرَ الْكَلِمَةِ عَلَى وَجْهِ مَخْصُوصٍ مِنَ الْإِعْرَابِ.

Nahvshunoslar nazdida omil – so'z oxirining e'robdan bo'lgan maxsus bir ko'rinishda (holatda) bo'lishini vojib qiluvchi (taqozo etuvchi) narsadir.

Ushbu ta'rifning eng nozik va ahamiyatli lingvistik nuqtasi أُوجِبَ (avjaba – vojib qildi, mutlaq zaruriyatga aylantirdi) fe'lining qo'llanishidadir. Al-Mutarriziyning falsafiy mantiqiga ko'ra, omil shunchaki lisoniy holatni o'zgartiruvchi instrument emas, balki ushbu o'zgarishsiz jumlaning mantiqiy ma'nosi (subyekt va obyekt munosabati) yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymaydigan dominant, majburlovchi (obligatory) lisoniy agent hisoblanadi.

Al-Mutarriziy sintaktik jarayonlarni yanada tizimlashtirish va o'rganishni osonlashtirish maqsadida barcha omillarni avvalo ikki yirik guruhga ajratadi: nutqda to'g'ridan-to'g'ri talaffuz qilinuvchi lafziy omillar (العوامل اللفظية) va nutqda zohir bo'lmasa-da, faqat aql va lisoniy mantiq orqali idrok etiluvchi ma'naviy omillar (العوامل المعنوية). O'z navbatida, lisoning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan lafziy omillar ham ikkiga: qat'iy grammatik andozalarga va mantiqiy qoidalarga tushadigan qiyosiy (القياسية) omillar (masalan, fe'llar va fe'ldan yasalgan ism foil, ism maf'ul kabilar) hamda faqat qadimiy arablarning nutqiy an'anasiga (eshitishga) tayanuvchi simoiy (السماعية) omillarga (harfi jarlar, nasb va jazm yuklamalari) tasniflanadi. Ushbu tasniflashning mukammalligi arab tilining murakkab sintaktik arxitekturasini aniq matematik va mantiqiy qoliplarda tushunish imkonini yaratibgina qolmay, fiqh ilmidagi murakkab huquqiy atamalarning kelib chiqishini to'g'ri talqin etishda ham yuksak ahamiyat kasb etdi.

Xorazm nahv maktabi, xususan, al-Mutarriziyning sintaktik ta'limotida so'z turkumlari orasida fe'l (الفعل) eng yuqori va mutlaq boshqaruvchi kuch – "omili asil"



(العامل الأصيل – tub, birlamchi omil) yoki “omili mutlaq” (العامل المطلق – shartsiz omil) maqomiga ega. "Misboh fi an-nahv" asarida muallif uqtiradiki, gap tarkibidagi boshqa har qanday qiyosiy omillar (masalan, ism foil – sifatdosh, masdar – harakat nomi) o‘zining sintaktik ta’sir kuchini faqat va faqat fe’ldan oladi. Fe’lning o‘zi esa hech qanday grammatik cheklovlarsiz, avtomatik ravishda o‘zidan keyingi ismlarning holatini (e’robini) o‘zgartirish layoqatiga egadir.

Al-Mutarriziy fe’lning arab tili sintaksisidagi hukmron funksiyasini foil (الفاعل – harakatni bajaruvchi ega) va maf’ul bihi (المفعول به – harakat bevosita yo‘naltirilgan to‘g‘ri to‘ldiruvchi) munosabati orqali chuqur tahlil qiladi. Grammatik qoidaga ko‘ra, har qanday fe’l o‘zidan keyin albatta bitta foilni (egani) talab qiladi va uni mutlaq ravishda raf’ (الرفع – bosh kelishik, odatda damma harakati) holatiga ko‘taradi. Agar fe’l mutaaddiy (o‘timli) bo‘lsa, u o‘zining lisoniy quvvatini yanada kengaytirib, foilning harakatini qabul qiluvchi obyektini – maf’ulni nasb (النصب – tushum kelishigi, odatda fatha harakati) qiladi.

Asarda bu qat’iy mantiqiy jarayon quyidagi sodda va mumtoz lisoniy formula orqali isbotlanadi:

ضَرَبَ زَيْدٌ عَمْرًا

(tarjimasi: "Zayd Amrni urdi").

Ushbu jumlada ضَرَبَ (daraba – urdi) fe’li eng kuchli lafziy omil sifatida ishtirok etmoqda. U birinchi navbatda harakat egasi bo‘lgan Zayd so‘zini o‘zining foili sifatida raf’ holatiga soldi (oxiriga damma harakatini berib, زَيْدٌ – Zaydun ko‘rinishiga keltirdi). So‘ngra, "urish" harakatining ta’siri (energiyasi) subyekt chegarasidan chiqib, Amrning ustiga tushgani sababli, ikkinchi ismni to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchi (maf’ul bihi) sifatida nasb holatiga tushirdi (oxiriga fatha harakatini berib, عَمْرًا – Amran ko‘rinishiga keltirdi). Al-Mutarriziy ta’kidlashicha, arab tilidagi e’rob muvozanati (ta’dil lisoniy) aynan shu fonetik taqsimotda namoyon bo‘ladi: gapda yakkau yagona bo‘lgan ega talaffuzda eng og‘ir sanalgan damma (u) bilan, ko‘p bo‘lishi ehtimoli bor to‘ldiruvchilar esa talaffuzda eng yengil sanalgan fatha (a) bilan harakatlantiriladi. Bu orqali lisoniy iqtisod (tejamkorlik) qonuni ta’minlanadi.

Al-Mutarriziyning arab sintaksisini ratsionallashtirishdagi eng yirik ilmiy kashfiyotlaridan biri shundaki, u mutaaddiy fe’llarni (الأفعال المتعدية) ularning sintaktik valentligi, ya’ni bir vaqtning o‘zida nechta obyektini tushum kelishigida (nasb) boshqara olish quvvatiga qarab uchta qat’iy darajaga tasniflaydi. Bu tasnif fe’llarning leksik-semantik imkoniyatlari ularning sintaktik arxitekturasini qanday belgilab berishini ochiq ko‘rsatadi.

Birinchi daraja: Faqat bitta to‘ldiruvchi (maf’ul bihi) talab qiluvchi fe’llar. Bunga yuqorida ko‘rib o‘tilgan urish, yozish, yeyish kabi oddiy jismoniy harakatlar kiradi. Ularning sintaktik qamrovi bitta obyektidagina yakun topadi.

Ikkinchi daraja: Birdaniga ikkita to‘ldiruvchini nasb qiluvchi fe’llar. Mutarriziy o‘z o‘rnida buni yana ikkita ostguruhga ajratadi. Dastlabki ostguruhga obyekt aslan



mubtado va xabar (ega va kesim) bo‘lmagan ismlar kiradi. Bularga asosan berish, kiydirish, baxsh etish ma’nosidagi “a’to” (أعطى) va uning guruhiga oid fe’llardir. Asardagi misol:

أَعْطَيْتُ زَيْدًا دِرْهَمًا

(tarjimasi: "Men Zaydga dirham berdim").

Mazkur jumlada omil bo‘lmish أعطى (a’to – berdi) fe’li (o‘zidagi tu olmoshi bilan birga) harakatni qabul qiluvchi shaxs – زَيْدًا (Zaydan) so‘zini birinchi maf’ul sifatida, bevosita berilgan ashyo – دِرْهَمًا (dirhaman) so‘zini esa ikkinchi maf’ul sifatida fatha bilan nasb qilmoqda. Mu’taziliy mantiqqa ko‘ra, agar biz boshdagi fe’l va foilni (A’toytu) olib tashlasak, orqada "Zayd dirhamdir" (زَيْدٌ دِرْهَمٌ) degan birikma qoladi, bu esa mantiqan absurd (noto‘g‘ri). Demak, bu turdagi fe’llarning obyektlari aslyatda mustaqil gap bo‘la olmaydigan alohida-alohida moddiy tushunchalardir.

Uchinchi daraja: Omillikning eng yuksak cho‘qqisi – birdaniga uchta to‘ldiruvchini nasb qiluvchi (المتعدي إلى ثلاثة مفاعيل) fe’llardir. "Misboh"da ta’kidlanishicha, arab tilida tubdan uchta maf’ul talab qiluvchi fe’l mavjud emas. Ular faqat bilish, axborot uzatish va idrok etish fe’llariga orttirma nisbat yuklamasi bo‘lgan "hamzatu at-ta’diya" (أَفْعَلٌ – o‘timli qiluvchi hamza) yoxud o‘zakni ikkilantiruvchi shadda (فَعَّلٌ) qo‘shilishidan yasaladi. Masalan, "bildi" (عَلِمَ) fe’li "bildirdi / xabardor qildi" (أَعْلَمَ) shakliga o‘tganda uning valyentligi yana bittaga ortadi.

أَعْلَمْتُ زَيْدًا عَمْرًا فَاضِلًا

(tarjimasi: "Men Zaydga Amrning fazilatli ekanligini ma’lum qildim/bildirdim").

Mazkur o‘ta murakkab sintaktik zanjirda أَعْلَمَ (a’lama) fe’li o‘z boshqaruv chegarasini maksimal darajada kengaytirib, ketma-ket uchta ismni tushum kelishigiga tobe etmoqda:

1. زَيْدًا (Zaydan) – axborotni eshituvchi / qabul qiluvchi shaxs (birinchi maf’ul);
2. عَمْرًا (Amran) – haqida axborot berilayotgan shaxs (ikkinchi maf’ul);
3. فَاضِلًا (fadilan) – o‘sha obyektning sifati yoki mantiqiy hukmi (uchinchi maf’ul).

Al-Mutarriziy bu lisoniy hodisaning tub mohiyatini shunday ochib beradi: agar ushbu gapdan fe’l va xabar qabul qiluvchini (A’lamtu Zaydan qismini) hazf qilsak (olib tashlasak), orqada to‘laqonli ismiy jumla – "Amr fazilatlidir" (عَمْرٌو فَاضِلٌ) degan mantiqiy butunlik qoladi. Ya’ni uchinchi guruh fe’llari inson ongida to‘liq shakllangan hukmni uchinchi bir shaxsga uzatish mexanizmidir. Mutarriziy aynan shu matematik-analitik tahlil orqali arab tilining axborot sig‘imi qanchalik kengligini va fe’lning nutqdagi mutlaq dominantligini beqiyos tarzda isbotlab bergan.

Mutaaddiy fe’llar tasnifida al-Mutarriziy alohida e’tibor qaratgan va tilshunoslikda chuqur psixolisoniy ahamiyatga ega bo‘lgan guruh — bu “af’al al-qulub” (أَفْعَالُ الْقُلُوبِ – Qalb fe’llari) dir. Bu fe’llar insonning aqliy idroki, ishonchi, gumoni kabi kognitiv jarayonlarni ifodalaydi. Al-Mutarriziy bu guruhdagi fe’llarni (masalan, ‘alima – bildi, ra’a – ko‘rdi/idrok qildi, zonna – o‘yladi/gumon qildi) qolgan o‘timli fe’llardan farqlab, ularning o‘ziga xos sintaktik tabiatini ko‘rsatib beradi. Omillik nazariyasining bu



o‘rindagi "mo‘jizasi" shundaki, qalb fe'llarining boshqaruv obyektini moddiy ashyo emas, balki to‘laqonli mantiqiy hukm (propozitsiya) hisoblanadi.

Bu fe'llar aslan muftado va xabar (ega va kesim) bo‘lgan tugallangan ismiy jumlaning to‘lig‘icha o‘z ichiga yutib yuboradi va uning har ikkala qismini o‘zining to‘g‘ri to‘ldiruvchilariga (birinchi va ikkinchi maf’ulga) aylantirib, nasb (fatha) kelishigiga soladi. Masalan, mustaqil ismiy jumla:

رَيْدٌ عَالِمٌ (tarjimasi: "Zaydun ‘alimun" – Zayd olimdir).

Bu o‘rinda Zayd (muftado) va olim (xabar) so‘zlari bosh kelishikda turibdi. Unga kognitiv idrokni ifodalovchi qalb fe’li kiritilsa, jumla quyidagi sintaktik qolipni oladi:

عَلِمْتُ رَيْدًا عَالِمًا

(tarjimasi: "Alimtu Zaydan ‘aliman" – Men Zaydning olim ekanligini bildim / Zaydni olim deb bildim).

Asarda ushbu qalb fe'llarining boshqa mutaaddiy fe'llarda uchramaydigan ikkita noyob sintaktik xususiyati tahlil qilinadi: ilg‘o (الإلغاء – bekor bo‘lish) va ta’liq (التعليق – to‘xtatib turilish). Agar qalb fe’li gapning o‘rtasida (qistirma shaklida) yoki oxirida kelsa, uning sintaktik ta’sir kuchi (omilligi) zaiflashadi va u o‘z obyektlarini nasb qilish huquqidan ixtiyoriy mahrum bo‘lishi mumkin. Bunga ilg‘o deyiladi. Masalan: رَيْدٌ ظَنَنْتُ فَائِمٌ (Zaydun – zonantu – qo‘imun: Zayd, menimcha, turguvchidir). Bu yerda fe’l o‘rtaga tushib qolgan uchun Zayd va qo‘im so‘zlari bosh kelishikda (raf’ holatida) qolavergan. Ta’liq hodisasi esa fe’l va uning obyektini o‘rtasiga inkor yoki so‘roq yuklamalari, yoxud ta’kid lomi tushib qolganda yuz beradi. Bunda fe’lning ta’siri zohiran (lafzda) to‘xtatiladi, ammo u mantiqan jumlaning boshqarishda davom etadi. Masalan: عَلِمْتُ لَرَيْدٌ مُنْطَلِقٌ (Alimtu la-Zaydun muntoliquun – Men bildimki, albatta Zayd ketuvchidir). O‘rtadagi ta’kid lomi sababli fe’l zohiriy e’robni o‘zgartira olmadi.

Xulosa. Abul Fath al-Mutarriziyning "Misboh fi an-nahv" asari arab tili sintaksisini mexanik yodlashga asoslangan qoidalar to‘plamidan yuqori intellektual va ratsional matematik tizim darajasiga olib chiqqan buyuk kashfiyotdir. Uning "omil" nazariyasi qat’iy sabab-oqibat mantiqiga tayanadi. Asarda fe’lning valentligi, ya’ni ta’sir etish quvvatining aniq geometrik va mantiqiy darajalarga (bir, ikki, uch to‘ldiruvchili fe’llar) ajratilishi arab tilini begonalarga, xususan, Movarounnahr va turkiy xalqlarga o‘rgatishda inqilobiy ahamiyat kashf etdi. Al-Mutarriziy inson aqli va idroki (qalb fe’llari) tildagi sintaktik arxitekturani qanday o‘zgartirib yuborishini aniq isbotlab, Mahmud az-Zamaxshariydan keyin Xorazm filologiya maktabining buyuk peshvosi sifatidagi "Xalifatu-z-Zamaxshariy" maqomiga to‘la haqli ekanligini ilmiy jihatdan namoyish qildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abid, M. A. al-Misbāh fī al-Nahw By Nāsir al-Dīn al-Mutarrizī al-Nahwī. A Critical Edition of the Text with the Life History of the Author. (PhD Thesis). – Durham: Durham University, 2009. – 435 p.
2. Arpaçukuru, O. Mutarrizî'nin Arap Gramerine Dair el-Mişbâh fî 'İlmi'n-Nahv Adlı Eserini İhtisar Yoluyla Telif Yöntemi // Uluslararası Orta Asya'dan Anadolu'ya İslâmî İlimler Sempozyumu Bildirleri Kitabı. – Karabük: Karabük Üniversitesi, 2021. – S. 237-252.
3. Çöğenli, M. Sadi. el-Mutarrizî Hayatı ve Eserleri. – Erzurum: Atatürk Üniversitesi, 1990. – 150 s.
4. Çöğenli, M. Sadi. Mutarrizî ve Misbahı // Cumhuriyet Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. – Sivas, 1999. – № 3. – S. 461-469.
5. Haywood, J. A. Arabic Lexicography. – Leiden: E. J. Brill, 1960. – 150 p.
6. Latipov, A. Arab tilida "zaif" harfli fe'llarning ifodalani shi // Sharqshunoslik. – Toshkent: TDSHU, 2021. – № 4. – B. 70-80.
7. Nosirova, M. O'rta asrlarda Xorazmda arab tilshunosligi // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – Toshkent: Texnika universiteti, 2010. – № 1. – B. 128-131.
8. Qosimova, S. Movarounnahr tilshunoslari asarlarida arab tili grammatik terminlarining qo'llanishi // Sharq tillari ikki tilli lug'atlarining leksikografik tadqiqotlari. – Toshkent: TDSHU, 2015. – B. 30-37.
9. Rahmatulloh, Rasuljon o'g'li. Janoh ut-tolib (Arab tili sarf fanidan darslik). – Toshkent: Movarounnahr, 2006. – 128 b.
10. Rakhmonov, A. K. Abul-Fath Burhan Al-Din Nasir Al-Mutarrizi – A Prominent Representative Of The Medieval Eastern Scientific Heritage // Oriental Journal of Philology. – Tashkent: Alfraganus University, 2025. – Vol. 2. – P. 549-560.
11. Raxmonov, A. Mutarriziy va uning "Nahv risolasi" // Sharq tillari tadqiqi va ta'limi muammolari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – B. 211-214.
12. ابن الأثير، عز الدين أبو الحسن علي بن محمد. الكامل في التاريخ. – القاهرة: إدارة الطباعة المنيرية، 1929. – ص 300.
13. ابن منظور، جمال الدين محمد بن مكرم. لسان العرب. – بيروت: دار صادر، 1993. – ص 500.
14. ابن هشام الأنصاري، جمال الدين عبد الله بن يوسف. أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك. – القاهرة: المكتبة التجارية الكبرى، 1956. – ص 400.